

YALPI HUDUDIIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 6 418,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 5,4 % ga kamaygan.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 109,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hisssasi 5,0 % ga yetdi.



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	

	I. YaHM	6 188,5	6 418,0	94,6
--	----------------	----------------	----------------	-------------

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 827,3	6 076,4	95,2
---	---	---------	---------	------



Mahsulotlarga sof soliqlar	361,2	341,6	85,2
----------------------------	-------	-------	------

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 827,3	6 076,4	95,2
--	---	----------------	----------------	-------------



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 123,6	1 386,8	103,3
---	----------------	----------------	--------------

	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 358,7	2 022,7	83,8
--	---	----------------	----------------	-------------




Sanoat	2 020,2	1 603,0	79,3
--------	---------	---------	------

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	Qurilish	338,5	419,7	111,0
	Xizmatlar	2 345,0	2 666,9	102,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	510,5	582,3	102,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	421,4	490,1	104,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 413,1	1 594,5	102,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 009,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga kamaygan.



Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 22,8 % ni, sanoat tarmog'i 26,4 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 43,9 % ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,2	94,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,8	5,3
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19,3	22,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	40,5	33,3
	sanoat	34,7	26,4
	qurilish	5,8	6,9
	Xizmatlar	40,2	43,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,8	9,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,2	8,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,2	26,2




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM
tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – 103,3 % (YaHMning tarmoqlar tarkibidagi ulushi – 22,8 %), qurilishda – 111,0 % (6,9 %) va xizmatlar sohasida – 102,7 % (43,9%) ijobiy oʻsish surʼatlari kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida oʻsish surʼatlari savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda 102,4 % (9,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,2 % (8,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan (26,2 %) iborat boʻldi. Sanoat tarmogʻida esa qoʻshilgan qiymat hajmining (79,3 %) kamayishi kuzatildi. Ushbu tarmoqning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi – 26,4 % tashkil etdi.




Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mutlaq oʻsish surʼatlari (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasida – 1,0 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,9 f.p.) ga ijobiy o'sish kuzatildi. Sanoat tarmog'i – 6,8 f.p. (2020- yil yanvar-martida ijobiy 1,5 f.p.) va mahsulotlarga sof soliqlar – 0,9 f.p. (2020- yil yanvar-martida ijobiy 0,2 f.p.) ga kamayish kuzatildi.




2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiqa nisbatan % da)



2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 109,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 119,5 % va qurilishda 111,8 % qayd etildi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 61,0 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 54,2 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.